

# O'zDSMIda darslarni innovatsion tashkil etish yuzasidan yig'ilish o'tkazildi



Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida o'quv jarayonlari faoliyati bo'yicha yig'ilish o'tkazildi. Unda institut rahbariyati, dekan va uning o'rinbosarlari, kafedra o'qituvchilari va boshqa xodimlar ishtirok etdi.



Yig'ilish avvalida avvalgi topshiriqlar yuzasidan hisobotlar tinglandi.



Shuningdek, fakultetlar va kafedralar faoliyati tahlil qilindi. Ularda talabalarning ta'lim sifati, iqtidorli o'quvchilar soni masalalari ko'tarildi.



Qolaversa, institut rektori, professor Ibrohim Yuldashev tomonidan darslarni innovatsion tarzda tashkil etish lozimligi ta'kidlandi. Buning uchun zamonaviy texnik jihozlar mavjudligi, talab bo'lsa, yana xarid qilinishi aytib o'tildi.



Yig'ilish so'ngida mas'ul xodimlarga tegishli topshiriqlar berildi.